



**GO'SHT YO'NALISHIDAGI HAYVONLARDA FUNKSIONAL  
OMIXTA YEM RETSEPTURALARINI ISHLAB CHIQISH VA  
SAMARADORLIGINI BAHOLASH**

**Ravshanov Shaxboz Ikrom o'g'li**

**Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti**

**Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna**

**Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti**

**[nilufar.kobilova90@mail.ru](mailto:nilufar.kobilova90@mail.ru)**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada go'sht yo'nalishidagi hayvonlar uchun funksional omixta yem retsepturalarini ishlab chiqish va ularning oziqaviy hamda biologik samaradorligini baholash masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida oqsil, energiya, vitamin va mineral moddalarga boy komponentlar asosida optimal yem tarkibi shakllantirildi. Shuningdek, probiotik va biologik faol qo'shimchalar qo'shilishi orqali hayvonlarning o'sish sur'ati, yemdan foydalanish koeffitsienti hamda mahsuldorligi oshirilishi aniqlangan. Olingan natijalar funksional yemlarning chorvachilikda samarali qo'llanilishini asoslab beradi.

**Kalit so'zlar:** funksional yem, omixta yem, go'sht yo'nalishidagi hayvonlar, oziqlanish, samaradorlik, probiotiklar, biologik faol moddalar.



Zamonaviy chorvachilikda hayvonlarning mahsuldorligini oshirish va sifatli go'sht mahsulotlari yetishtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda to'g'ri va balanslangan oziqlantirish tizimi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, funksional omixta yemlardan foydalanish orqali hayvonlarning o'sish sur'atini tezlashtirish, sog'lomligini mustahkamlash va yemdan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin. So'nggi yillarda biologik faol qo'shimchalar, probiotiklar, ferment preparatlari qo'llanilgan yemlar chorvachilikda keng qo'llanila boshladi. Shu bois funksional yem retsepturalarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini ilmiy asosda baholash dolzarb hisoblanadi. Ma'lumki, so'nggi yillarda aholining ovqatlanishida yo'naltirilgan tendensiyalarni rivojlantirishga, xususan, alimantar bog'liq kasalliklarning oldini olishga xizmat qiluvchi texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Ushbu muammo hayvon organizmi darajasida xom ashyoni boyitish orqali, ya'ni tarkibida biologik o'zlashtiriladigan organik yod mavjud bo'lgan yangi yem qo'shimchalari va biologik faol moddalarni qo'llash orqali hal etilishi mumkin. Ma'lum biokimyoviy tarkibga ega bo'lgan chorvachilik xom ashyosini ishlab chiqarish jarayonida bir vaqtning o'zida hayvonlarning mahsuldorligini oshirish va ularning fiziologik holatini yaxshilash masalalari ham hal etilishi zarur. Chunki faqat sog'lom hayvonlardan yuqori sifatli mahsulot olish mumkin.



Hozirgi kunda qoramollarni semirtirish tizimida mol go'shti ishlab chiqarishda yangi maqsadli yem qo'shimchalari joriy etilmoqda. Ularni qo'llash organizmda makro va mikroelementlar yetishmovchiligini bartaraf etish, ovqat hazm qilish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatish, hayvonlarning fiziologik holatini yaxshilash, immun tizimi faoliyatini faollashtirish, mahsuldorlikni oshirish va tabiiy rezistentlik darajasini kuchaytirish imkonini beradi [1; 3; 4]. Bundan tashqari, chorvachilikda hozirgi kunda oziq-ovqat mahsulotlarini maqsadli ravishda turli makro va mikroelementlar bilan boyitish imkonini beruvchi qator yem qo'shimchalari qo'llanilmoqda. Bu, ayniqsa, yod yetishmovchiligi kuzatiladigan hududlar uchun dolzarbdir. So'nggi yillarda olimlar e'tibori mahsuldor hayvonlar ratsionida mikroelementlarning organik shakllarini qo'llashga qaratilmoqda. Bu esa xom ashyoning zarur sifat ko'rsatkichlarini hayvon organizmi darajasida shakllantirishni ta'minlaydi va keyinchalik yod bilan boyitilgan funksional mahsulotlar ishlab chiqarish orqali yod yetishmovchiligi muammosini hal etishga xizmat qiladi. Funksional mahsulotlarning organizm darajasida modifikatsiyasi ilmiy asoslangan holda, ularga oldindan belgilangan sifat ko'rsatkichlarini berish orqali amalga oshirilishi lozim [6;8]. Shu bois, buqalarni yetishtirish jarayonida qo'llaniladigan, tarkibida organik yod mavjud bo'lgan yangi yem qo'shimchalarini ishlab chiqish chorvachilik sohasidagi dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Yangi yem qo'shimchalarining hayvon organizmi fiziologiyasiga ta'sir mexanizmini o'rganish, ularning go'sht mahsuldorligini oshirish, belgilangan sifat ko'rsatkichlariga ega xom ashyo olish hamda uning asosida yod yetishmovchiligini oldini olishga xizmat qiluvchi polifunksional mahsulotlar ishlab chiqarish istiqbolli vazifalardan biridir. Tadqiqot mavzusining o'rganilganlik darajasi shuni ko'rsatadiki, ushbu yo'nalishda xorijiy mamlakatlarda chorvachilik mahsulotlarini maxsus yem qo'shimchalari yordamida organizm darajasida boyitishga oid ilmiy ishlar mavjud. Xususan, buqalar ratsioniga yem qo'shimchalari va turli biologik faol



moddalarni, jumladan yod saqlovchi komponentlarni qo'shish orqali go'sht mahsulotlarini mikroelementlar bilan boyitish masalalari bilan quyidagi olimlar shug'ullangan: Iatkauskas I. (2007); Vrotniakiene V. (2007); Levaxin V.I. (2011); Spivak M.E. (2011); Randelin D.A. (2011); Bagriy B.A. (2016); Mysik A.T. (2017); Samet Ch. (2019); Emelyanenko A.V. (2020); Nikonova E.A. (2022); Sabitov M.T. (2022); Gorlov I.F. (2023); Duskaev G.K. (2022, 2023). Tadqiqotchilar shuni aniqladilarki, mol go'shti ishlab chiqarishni "daladan iste'molchigacha" bo'lgan trofologik zanjir bo'ylab kuzatib borish hamda bu jarayonda maxsus yem qo'shimchalaridan foydalanish olinayotgan mahsulotni hayvon organizmi darajasida modifikatsiya qilish, unga funksional oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan belgilangan sifat ko'rsatkichlarini berish imkonini yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Qobilova N.X, Shamshaddinova I.M "Oziq-ovqat mahsulotlari va ular tarkibida gi genetik modifikatsiyalangan organizmlar". ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ// Выпуск журнала №-35 Часть-3\_ Декабрь –2023.143-146 betlar.
2. Амерханов, Х. А. Сохранение и развитие генофондных пород сельскохозяйственных животных – основа продовольственной независимости России / Х. А. Амерханов. – Текст : непосредственный // Молочное и мясное скотоводство. – 2022. – № 6. – С. 3-5.
3. Антипов, В. А. Йод в ветеринарии / В. А. Антипов, А. Х Шантыз, Е. В Громыко, А. В. Егунова, С. А. Манукало. – Краснодар: КубГАУ, 2011. – 306 с. – Текст : непосредственный.



4. Антипова, Л. В. Методы исследования мяса и мясных продуктов: учебное пособие / Л. В. Антипова, И. А. Глотова, И. А. Рогов. – М.: КолосС, 2004. – 571 с. – Текст : непосредственный.
5. Арзуманян, Е. А. Животноводство / Е. А. Арзуманян. – М.: ВО, Агропромиздат, 2017. – 205 с. – Текст : непосредственный.
6. 10. Артюхов, А. Люпин – ценный источник белка в комбикормах / А. Артюхов, Н. Гапонов. – Текст : непосредственный // Комбикорма. – 2010. – № 3. – С. 65-66.
7. 11. Артюхов, А. Люпин – эффективный источник белка / А. Артюхов. – Текст : непосредственный // Животноводство России. Спецвыпуск по молочному и мясному скотоводству. – 2014. – № 1. – С. 55-57.
8. Багрий, Б. А. Разведение и селекция мясного скота / Б. А. Багрий. – М: Агропромиздат, 2016. – 256 с. – Текст : непосредственный.
9. Балаболкин, М. И. Фундаментальная и клиническая тиреоидология: руководство / М. И. Балаболкин, М. И. Клебанова, В. М. Креминская. – М.: Медицина, 2007. – 816 с. – Текст : непосредственный
10. QobilovaN.X, Boymuradov Q. “Xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli va genetik modifikatsiyalangan organizmlar”. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ// Выпуск журнала №-35 Часть-3\_ Декабрь –2023.146-149 betlar.
11. QobilovaN.X, Bekmuradova A. “Momordica charantia hind anori tarkibi va foydali xususiyatlari” ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В



МИРЕ// Выпуск журнала №-35 Часть-3\_ Декабрь –2023.150-153  
betlar.

12. Махмудов Р.А.,Мажидов К.Х., Жабборова N.Qobilova.,  
Д.Р.Study of amaranth seeds as the raw material for the extraction of  
biologically active additives. TEST Engineering Management (Scopus)  
May-June 2020. ISSN:0193-4120 Page.№29349-29353

13. N.Kobilova, R,Adizov, K.Madjdov. Improvement of  
quality and indicators wheat mixing amaranta flour . Austrian Journal of  
Technical and Natural Sciences, 2020.

14. Qobilova N.X, Do'stqobilova M. S. (2023). Suli donining  
morfologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi va ozuqaviy qiymat  
ko'rsatgichlarining tasniflanishi. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И  
ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 18(8), 127–128.

15. Suvanova F., Qobilova N., Tuxtamishova G. Improvement  
of solvent recovery technology in oil extraction production //Science and  
innovation. – 2023. – Т. 2. – №. А1. – С. 209-212.

16. Кобилова Н.Х. Влияние льняной муки на реологические  
свойства пшеничного тесто и качества хлеба/Н.Х.Кобилова,  
Р.Т.Адизов, К.Х.Мажидов // Экономика и социум. – 2020. - №9 (76).  
- С.219-22

17. Bekmuradova A. N.Qobilova Momordica charantia hind  
anori tarkibi va foydali xususiyatlari // образование наука и  
инновационные идеи в мире//Выпуск журнала №-35 Часть-3\_  
Декабрь –2023 .150-153.

18. N.Kobilova, R,Adizov, K.Madjdov. Improvement of  
quality and indicators wheat mixing amaranta flour . Austrian Journal of  
Technical and Natural Sciences, 2020.

19. N.X.Qobilova ,D.T.Shukurov,L.J.Xushmurodov //SULI  
UNINI QO'SHISH ORQALI NONNING REOLOGIK



XUSUSIYATLARINI YAXSHILASH VA UNDAN FOYDALANISH ASOSLARI/ Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari/ 6-to'plam 4-son aprel 2024,65-69 betlar.

20. Boymuradov Q., Qobilova N. X. XAVFSIZ OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISTE'MOLI VA GENETIK MODIFIKATSIYALANGAN ORGANIZMLAR //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 35. – №. 3. – С. 147-149.

21. M.Do'stqobilova, & N.X.Qobilova. (2023). SULI YORMASIDAN ODDIY UN OLISH JARAYONINING TADQIQOTI. Scientific Impulse, 1(10), 1526–1528. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/9696>.

22. Abdullayeva S. I., Qobilova N. X. FERULA THENUSESTA YA'NI SUMBULANING FOYDALI XUSUSIYATLARI UNDAN FOYDALINISH //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 6-8.

23. Xudoyshukurovna, Qobilova Nilufar. "Suli donining morfologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi va ozuqaviy qiymat ko'rsatgichlarining tasniflanishi." Образование наука и инновационные идеи в мире 18.8 (2023): 127-128.

24. Qobilova N. X., O'tayeva N. S. XAMIRNING REOLOGIK XUSUSIYATLARINI YAXSHILASH REJIMI TANLASHDA SULI UNIDAN FOYDALANISH //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue. – С. 92-93.

25. Кобилова Н. Х. РАСЧЁТ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПОРОШКА ШИПОВНИКА В ПРОИЗВОДСТВЕ ЛЕПЁШЕК ОБИ-НОН //Экономика и социум. – 2024. – №. 4-2 (119). – С. 749-752.



26. Кобилова Н. Х., Мухаммаддаминова Д. Б., Курбанов Ш. Ш. РАСЧЁТ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПОЛУОБЕЗЖИРЕННОЙ ЛЬНЯНОЙ МУКИ В ПРОИЗВОДСТВЕ ЛЕПЁШЕК ШИРМАЙ-НОН //Экономика и социум. – 2024. – №. 4-2 (119). – С. 753-757.

27. Кобилова Н. Х., Туробов У. А., Мурадов А. А. ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ МУКИ ИЗ СЕМЯН ТЫКВЫ НА ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ КЛЕЙКОВИНЫ ПШЕНИЧНОГО ТЕСТА: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – Т. 6. – №. 4. – С. 96-100.

28. Boymurodov Q., Abdishukurov F., Xudoyshukurovna Q. N. MORUS ALBA (OQ TUT) SHINNISINING FOYDALALI XUSUSIYATLARI UNING KIMYOVIY TARKIBI //PEDAGOGS. – 2024. – Т. 54. – №. 1. – С. 77-80.

29. Кобилова Н. Х., Зиядуллаева Ш. Ш., Кабулова К. М. ИЗУЧЕНИЕ ВЛИЯНИЯ БЕЛКОВОЙ АРАХИСНОЙ МАССЫ НА ПОКАЗАТЕЛИ ХЛЕБА: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – Т. 6. – №. 4. – С. 75-79.